



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MIF, MIFOLOGIK OBRAZ VA MOTIV TUSHUNCHALARINING NAZARIY ASOSLARI

Yakubov Baxtiyor

Toshkent amaliy fanlar universiteti, magistir

Annotatsiya

Mazkur maqolada mif, mifologik obraz va motiv tushunchalarining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Mifning inson tafakkuridagi oʻrni, uning ramziy va badiiy xususiyatlari, shuningdek, mifologik obrazlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Turli ilmiy yondashuvlar, xususan, Ernst Cassirer, Claude Levi-Strauss, Yeleazar Meletinsky va Mircea Eliade qarashlari asosida mifning strukturaviy, semantik va funksional jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, mifologik obrazlarning xalq ogʻzaki ijodi hamda yozma adabiyotdagi ifodasi, ularning badiiy tafakkur taraqqiyotidagi oʻrni va ahamiyati tahlil etiladi. Maqolada mifologizm, mifologizatsiya va neomifologizm kabi tushunchalar ham ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: mif, mifologiya, mifologik obraz, motiv, mifologizm, neomifologizm, mifologizatsiya, ramziy tafakkur, folklor, epik janr, badiiy tafakkur, arxetip, semantika, struktura.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЙ МИФА, МИФОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА И МОТИВА

Якубов Бахтиёр

Ташкентский университет прикладных наук, магистр

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы понятий мифа, мифологического образа и мотива. Рассматривается роль мифа в человеческом мышлении, его символические и художественные особенности, а также этапы формирования и развития мифологических образов. На основе научных подходов Ernst Cassirer, Claude Lévi-Strauss, Yeleazar Meletinsky и Mircea Eliade раскрываются структурные, семантические и функциональные аспекты мифа. Также анализируется роль мифологических образов в устном народном творчестве и письменной литературе, их значение в развитии художественного мышления. В статье обосновываются понятия мифологизма, мифологизации и неомифологизма.

Ключевые слова: миф, мифология, мифологический образ, мотив, мифологизм, неомифологизм, мифологизация, символическое мышление, фольклор, эпический жанр, художественное мышление, архетип, семантика, структура.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPTS OF MYTH, MYTHOLOGICAL IMAGE, AND MOTIF

Yakubov Baxtiyor

Tashkent University of Applied Sciences, Master's Graduate

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations of the concepts of myth, mythological image, and motif. It examines the role of myth in human cognition, its symbolic and artistic features, as well as the stages of formation and development of mythological images. Based on the scientific approaches of Ernst Cassirer, Claude Levi-Strauss, Yeleazar Meletinsky, and Mircea Eliade, the structural, semantic, and functional aspects of myth are revealed. The study also explores the representation of mythological images in folklore and written literature, as well as their significance in the development of artistic thinking. The concepts of mythologism,

mythologization, and neomythologism are theoretically substantiated.

Keywords: myth, mythology, mythological image, motif, mythologism, neomythologism, mythologization, symbolic thinking, folklore, epic genre, artistic thinking, archetype, semantics, structure.

“Mif” (yunoncha *mythos* — rivoyat, hikoya) qadimgi insonlarning borliqni tushuntirishga qaratilgan ramziy-hikoyaviy tafakkur mahsulidir. Miflar orqali ibtidoiy jamiyat vakillari tabiat hodisalari, koinotning yaratilishi, insonning kelib chiqishi va ijtimoiy tartiblarni izohlashga harakat qilganlar. XX asr davomida “mif” tushunchasining mohiyatini aniqlash, uning strukturaviy, semantik va funksional jihatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar nihoyatda keng ko‘lam kasb etdi. Bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar nafaqat jahon ilm-fanida, balki milliy ilmiy maktablarda ham muhim o‘rin egallab, ushbu sohada salmoqli ilmiy meros — go‘yoki alohida kutubxona darajasidagi ilmiy boylikni shakllantirdi.

Mif masalasi XX asr ilm-fanida ko‘plab yirik tadqiqotchilar tomonidan har tomonlama o‘rganildi. Jumladan, rus ilmiy maktabi vakillari — Aleksey Losev, Olga Freydenberg, Yeleazar Meletinsky, Mikhail Steblin-Kamensky, Aleksandr Pyatigorsky, Yuri Lotman, Vladimir Toporov, Vyacheslav Ivanov kabi olimlar mifning lingvistik, semiotik va madaniy qatlamlarini chuqur tahlil qildilar. G‘arb ilmiy an‘analarida esa mif fenomeni Bronisław Malinowski, Ernst Cassirer, Claude Levi-Strauss, Kurt Hübner, Mircea Eliade, Georges Dumézil kabi tadqiqotchilar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida o‘rganildi. Ularning har biri mifni o‘ziga xos jihatdan talqin etdi: ba‘zilar uni ijtimoiy va madaniy institut sifatida izohlasa, boshqalar mif orqali inson ongining chuqur qatlamlari va arxetipik tuzilmalarini ochib berishga harakat qildilar.

Mif xalq dunyoqarashi va og‘zaki ijodning qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida g‘oyat katta o‘rin tutadi. Miflarning yuzaga kelishi, rivojlanish bosqichlari va badiiy adabiyotning shakllanishidagi ahamiyati kabi masalalarni o‘rganish jahon adabiyotshunosligining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki folklor an‘analari orqali yetib kelgan qadimgi miflarning ayrim namunalari va ba‘zi bir an‘anaviy mifologik obrazlar yozma adabiyotda ham qo‘llanilgan. Miflarning yozma adabiyotga munosabati, xususan, asotiriy syujetlar va obrazlardan foydalanishda ijodkorning mahorati masalasi o‘zbek olimlari tomonidan ham ma‘lum darajada o‘rganilgan. Bu o‘rinda N. Mallayev, M. Saidov, G‘. Akramov, M. Jo‘rayev, T. Xo‘jayev kabi olimlarning tadqiqotlarini tilga olib o‘tish mumkin [1; 90–137-bet].

Mif qadimgi insonlarning olam haqidagi dastlabki tasavvurlarini o‘zida mujassam etganligi bilan xarakterlanadi. U ibtidoiy tafakkurning mahsuli sifatida insonning atrof-muhitni anglashga bo‘lgan intilishining ifodasi hisoblanadi. Qadimgi odamlar tabiatda yuz beradigan turli hodisalar — yer qimirlashi, yomg‘ir yog‘ishi yoki qurg‘oqchilik, shamol esishi, dovul va to‘fonlarning yuzaga kelishi, Quyosh va Oyning tutilishi, osmonda dumli yulduzlarning paydo bo‘lishi, yulduz uchishi, shuningdek, kecha va kunduzning almashib turishining asl sabablarini ilmiy asosda tushuntirib bera olmaganlar. Shu bois ular mazkur hodisalarni mifologiya doirasidagi tasavvurlar orqali izohlashga harakat qilganlar. Ya‘ni miflar orqali tabiat kuchlari jonlantirilib, ularga ilohiy yoki g‘ayritabiiy mohiyat yuklangan va shu yo‘l bilan inson ongida borliqning yaxlit, ramziy manzarasi shakllantirilgan. Shu zaylda olamdagi mavjudlikning sabablarini izohlash, tushuntirish, mohiyatiga yetishga qaratilgan eng qadimgi tasavvurlar silsilasidan iborat miflar kelib chiqqan. Mifologiyani inson dunyoqarashining eng qadimgi bosqichiga mansub hodisa sifatida baholagan folklorshunos B. Sarimsoqovning yozishicha, mif “ibtidoiy tasavvur sistemasi sifatida qadimgi insonning voqelikka qarashidagi eng umumiy, eng mushtarak yo‘ldir” [2; 18–23-bet].

Mamatqul Jo‘rayev va Shavkat Shomusarov fikricha, mif qadimgi insonning ishonch-e‘tiqodlari, tasavvurlari, diniy qarashlari hamda dastlabki ijodiy izlanishlarining so‘z orqali ifodalangan shaklidir. Ularning ta‘kidlashicha, mif ibtidoiy inson ma‘naviy olamining muayyan ehtiyojlari — avvalo, o‘z dunyoqarashini ifodalash zarurati natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek,

mifologik tasavvurlar tizimi qadim zamonlarda shakllanib, keyinchalik folklordagi epik janrlarning syujeti va obrazlar tizimining paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Darhaqiqat, qadimgi miflarning mazmuniga nazar tashlansa, unda borliqdagi barcha narsa va hodisalarni jonlantirib tasavvur qilish, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni talqin etish, kosmos va kaos o'rtasidagi munosabatlarni izohlash kabi muhim g'oyaviy yo'nalishlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Qadimgi insonlar olamda bir tomondan yaxshilik olib keluvchi ezgulik kuchlari, ikkinchi tomondan esa kasallik va tabiiy ofatlar sababchisi bo'lgan yovuz kuchlar mavjud deb tasavvur qilganlar. Ularning qarashicha, bu kuchlar o'rtasida doimiy kurash davom etadi va oxir-oqibat ezgulik g'alaba qozonadi. Aynan shu e'tiqodlar asosida insonlar g'ayritabiiy, afsonaviy kuchlarning madadiga ishonch bildirganlar. Bu esa qadimgi davrlarda shakllangan va muayyan e'tiqodiy-amaliy ahamiyat kasb etgan kult miflarining yuzaga kelishiga zamin bo'lib xizmat qilgan.

Miflar qadimgi inson dunyoqarashining soddaligi va cheklanganligi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa-da, ular badiiy tafakkurning shakllanishi va rivojida muhim o'rin egallagan. Miflarda ifodalangan ezgulik kuchlariga ishonch g'oyasi insonlarni go'zallikni qadrlashga, tabiatning abadiylikini asrashga hamda har qanday bunyodkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga undagan. Shu jihatdan, mif nafaqat ibtidoiy tasavvurlar mahsuli, balki insoniyatning estetik va ma'naviy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi.

Ijtimoiy tafakkur taraqqiyotining muayyan davrida mifologiya o'z tarixiy vazifasini ado etgan. Bu vazifaning mohiyati shundaki, mifologik tafakkur tabiat kuchlarini emas, balki xayoliy va ramziy shaklda "yengadi", ya'ni qadimgi inson o'z tasavvurlari orqali borliqni o'ziga bo'ysundiradi va o'ziga mos xayoliy olamni yaratadi. Shu bois mif qadimgi insonning tabiatga nisbatan ongsiz, ammo ijodiy munosabatining mahsuli sifatida talqin etiladi. Mif "qadimgi insonning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi" sifatida ham qaraladi. Vaqt o'tishi bilan inson tabiat hodisalarini ongli ravishda anglashga intila boshlaydi va natijada mifologik tasavvurlar asta-sekin ilmiy hamda ratsional qarashlar bilan almashadi. Aynan shu jarayon badiiy-estetik tafakkurning shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada yozma adabiyotda uchraydigan ko'plab syujet va obrazlar o'z ildizlarini folklor orqali mifologik tasavvurlardan oladi. Bu holat mifning nafaqat tarixiy, balki adabiy va madaniy meros sifatida ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Folklorshunoslik fani tilshunoslik, xususan, onomastika sohasiga yaqin bo'lib, unda qadimgi insonlarning dastlabki mifologik qarashlari va e'tiqodlari asosida shakllangan mifologik obrazlarning nomlari o'rganiladi. Bu sohada mifologik obrazlarni ifodalovchi tushuncha va atamalar quyidagicha tasniflanadi: mifga oid nomlar — "mifonimlar"; tangri va xudolar nomlari — "teonimlar" (masalan, Mira, Hurmuz); demonologik qahramonlar nomlari — "demononimlar" (shayton, pari, dev, jin kabi); afsonaviy qahramonlar nomlari — "mifoantroponimlar" (Xizr, Jamshid (Yima), Kayumars, Odami Od kabi); mifga bog'liq joy nomlari — "mifotoponimlar" (Ko'hi Qof, Bog'i Eram kabi); hayvon shaklidagi mifologik jonzotlar nomlari — "mifozoonimlar" (ajdar kabi); qush shaklidagi mifologik mavjudotlar nomlari — "mifoornitonimlar" (Semurg', Humo, Anqo, Jestirnoq, Samandar kabi); shuningdek, afsonaviy o'simlik nomlari — "mifofitonimlar" (mehrigiyo kabi) kabi turli atamalar ostida birlashtiriladi. Masalan, yalmog'iz, ajdar, ajina kabi bir qator mifonimlar so'z, tushuncha va obrazlar paradigmasini tashkil qiladi [3; 215-bet].

Mifologik obrazlar — xalq og'zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlaridagi mifologik negizga ega bo'lgan asotiriy personajlar. Mifologik obrazlar muayyan voqea-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chiradi va uning shakli tajassumi hisoblanadi [4; 110-bet].

Mifologik obrazlar ibtidoiy badiiy tafakkur mahsuli bo'lib, ular qadimgi insonning koinot, tabiat va jamiyatdagi turli hodisalarni tushuntirishga bo'lgan intilishi natijasida yuzaga kelgan. Bunday obrazlar orqali qadimgi odamlar noma'lum va tushunarsiz jarayonlarning

sabablarini g'ayritabiiy kuchlar bilan izohlashga harakat qilganlar. Keyinchalik badiiy tafakkur rivojlanishi bilan bu asotiriy timsollar mifologiya doirasidan chiqib, adabiyot va san'atga ko'chdi hamda yangi badiiy mazmun bilan boyidi.

O'zbek mumtoz adabiyoti va xalq og'zaki ijodida mifologik obrazlar keng o'rin egallaydi. Xususan, "Alpomish", "Kuntug'mish", "Rustamxon" va "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar, shuningdek, ertak va afsonalarda uchraydigan turli timsollar xalqning qadimgi dunyoqarashini aks ettiradi. Bu obrazlar badiiy talqinning mukammalligini ta'minlab, poetik tafakkurning keng imkoniyatlarini namoyon etadi.

Mifologik obrazlar nafaqat qadimgi dunyoqarash mahsuli, balki hozirgi adabiyotda ham muhim badiiy vosita sifatida xizmat qilib, insonning ichki olami, axloqiy tanlovlari va ruhiy izlanishlarini yoritishda samarali qo'llaniladi. Ajdaho obrazi jahon mifologiyasida eng qadimiy va keng tarqalgan timsollardan biri bo'lib, u ko'pincha yovuzlik, sinov va g'ayritabiiy kuchlarning ramzi sifatida talqin etiladi. Turli xalqlar rivoyatlarida ajdaholar dahshatli va qudratli mavjudot sifatida tasvirlansa-da, inson qahramonlarining ularni yengishi orqali ezgulikning g'alabasi g'oyasi ilgari suriladi.

Ajdaho obrazi nafaqat jahon mifologiyasi va afsonalarida, balki o'zbek xalq dostonlarida ham muhim badiiy vosita sifatida qo'llanadi. Dostonlarda ajdaho odatda yovuz kuch, xavf va sinov timsoli sifatida tasvirlanib, bosh qahramonning jasorati va matonatini namoyon etish uchun xizmat qiladi. Xalq dostonlarida ajdaho bilan kurash motivi qahramonning yetuklik bosqichini ifodalovchi muhim epizodlardan biri hisoblanadi. Masalan, "Alpomish", "Kuntug'mish", "Rustamxon" hamda "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi dostonlarda qahramonlar turli g'ayritabiiy kuchlar, jumladan, ajdahosimon maxluqlar bilan to'qnash keladi. Bu jarayonda qahramon faqat jismoniy kuch emas, balki aql, sabr va ma'naviy poklik orqali g'alabaga erishadi.

Dostonlardagi ajdaho obrazi ko'pincha ma'lum makon — g'or, tog', suv manbalari yoki sirli hududlar bilan bog'lanadi. Bu esa uning "chegaraviy makon" timsoli ekanligini, ya'ni inson yashaydigan tartibli olam bilan noma'lum va xavfli dunyo o'rtasidagi chegarani ifodalashini ko'rsatadi. Qahramonning aynan shu makonga kirib borib, ajdahoni yengishi uning sinovlardan o'tib, haqiqiy qahramonga aylanganini anglatadi. Shuningdek, ajdaho obrazi orqali dostonlarda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash g'oyasi badiiy ifodalanadi. Ajdaho yovuzlik, tartibsizlik va halokat timsoli bo'lsa, qahramon adolat, jasorat va ezgulikning ifodachisidir. Shu sababli ajdahoni yengish nafaqat individual g'alaba, balki ijtimoiy va axloqiy tartibning tiklanishi sifatida talqin qilinadi.

Mifologik obrazlarning o'rganilishi nafaqat adabiy tahlil doirasida, balki xalq tafakkuri, milliy ruh va madaniy merosni chuqur anglashda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mifologik obrazlar orqali qadimgi insonlarning borliq haqidagi tasavvurlari, axloqiy qarashlari hamda estetik ideallari namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, ular folklorshunoslik va mifologiya doirasidagi tadqiqotlarning asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi. "Mifologizm" tushunchasi badiiy asarda qo'llanilgan mifologik obraz va motivlarning qayta ishlanishi yoki ular asosida yangidan yaratilgan badiiy timsollarni anglatadi. U folklorshunoslikdagi folklorizm hodisasiga yaqin bo'lsa-da, undan farqli ravishda bevosita mifologiyaga tayanganligi bilan ajralib turadi. Masalan, ingliz adabiyotida elf, goblin, hobbit, dwarf kabi obrazlar, o'zbek adabiyotida esa ajdar, semurg', yalmog'iz kampir, dev singari timsollar mifologizmning yorqin ko'rinishlari hisoblanadi. Mifologik tasavvurlar ijtimoiy hayot voqealari bilan uyg'un holda talqin qilinib, yangi mazmun va funksiyaga ega bo'lishi esa mifologizatsiya jarayonini tashkil etadi. Bunda qadimiy miflar zamonaviy kontekstda qayta talqin qilinib, yangicha badiiy vazifani bajaradi.

XX asr adabiyoti va san'atida keng tarqalgan neomifologizm esa mifologik tafakkurning yangicha bosqichi sifatida qaraladi. U mifologik syujet, obraz, motiv va ramzlarning zamonaviy talqinini nazarda tutib, yangi mif va afsonalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu hodisa badiiy tafakkurning yangilanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, an'anaviy mifologik qatlamning zamonaviy interpretatsiyasini ifodalaydi. Yozma adabiyot folklor an'analari orqali qadimgi

mifologiya bilan uzviy bog‘liqdir. Miflar xalq og‘zaki ijodida epik syujet, motiv va poetik detallar shaklida saqlanib, keyinchalik badiiy adabiyotda voqelikni tasvirlashning samarali vositasiga aylangan. Shu sababli badiiy matnda uchraydigan mifologik syujet unsurlari va timsollar mifologizmlar sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida ham mifologik tasavvurlar asosida shakllangan obraz va motivlardan keng foydalanilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida qadimgi mifologik qatlamlarga borib taqaluvchi ko‘plab poetik timsollar tizimi mavjud. Bu esa uning asarlarida mifologizmlarning manbalari, turlari va badiiy funksiyalarini qiyosiy-tarixiy asosda chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. “Mifologizm” badiiy asarda mifologik obraz va motivlarning qayta talqin qilinishi yoki ular asosida yangi badiiy timsollarning yaratilishini anglatadi. Bu hodisa folklorshunoslikdagi folklorizmga yaqin bo‘lsa-da, undan farqli ravishda bevosita mifologiya manbalariga tayanishi bilan ajralib turadi. Masalan, ingliz adabiyotida elf, goblin, hobbit, dwarf kabi obrazlar, o‘zbek adabiyotida esa ajdar, semurg‘, yalmog‘iz kampir, dev singari timsollar mifologizmlarning tipik ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

XX asr adabiyoti va san‘atida keng tarqalgan neomifologizm esa mifologik tafakkurning yangi bosqichi sifatida baholanadi. U mifologik syujet, obraz, motiv va ramzlarning zamonaviy interpretatsiyasini ifodalaydi hamda yangi mif va afsonalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu ma‘noda, neomifologizm an‘anaviy mifologik qatlamning zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashgan shaklidir. Yozma adabiyot folklor an‘analari orqali qadimgi mifologiya bilan uzviy bog‘langan. Miflar xalq og‘zaki ijodida epik syujetlar, motivlar va poetik detallar shaklida saqlanib, keyinchalik badiiy adabiyotda voqelikni tasvirlashning muhim vositasiga aylangan. Shu sababli badiiy matnda uchraydigan mifologik syujet unsurlari va obrazlar mifologizmlar sifatida talqin etiladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida ham mifologik asosga ega obraz va motivlardan keng foydalanilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida qadimgi mifologik qatlamlarga borib taqaluvchi boy poetik timsollar tizimi mavjud. Bu esa uning asarlarida mifologizmlarning manbalari, tasnifi va badiiy funksiyalarini qiyosiy-tarixiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mif, mifologik obraz va motivlar qadimgi inson tafakkurining mahsuli bo‘lishiga qaramay, bugungi kungacha o‘z ilmiy va badiiy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Ernst Cassirer, Claude Lévi-Strauss, Yeleazar Meletinsky va Mircea Eliade kabi olimlar yondashuvlari mifning murakkab, ko‘p qatlamli fenomen ekanini ko‘rsatadi. Mifologik obrazlar esa folklor va yozma adabiyotda insonning dunyoqarashi, estetik ideallari hamda ma‘naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. — Toshkent, 1974. — B. 90–137.
2. Saidov M. Turkiy xalqlar mifologiyasining yozma adabiyotga ta’siri masalasiga doir // Adabiyot ko‘zguisi. — 1996. — № 2. — B. 141–145.
3. Akramov G‘. Mif va yozma adabiyot munosabatiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. — 1996. — № 2. — B. 60–66; № 4. — B. 70–74; № 5. — B. 56–58; № 6. — B. 53–57.
4. Jo‘rayev M. Miflarning yozma adabiyotga munosabati // O‘zbek tili va adabiyoti. 1980. № 6.
5. Jo‘rayev M. Mif va uning Alisher Navoiy ijodiyotidagi o‘rni // “Alisher Navoiy ijodi va ma‘naviy taraqqiyot masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. — Navoiy, 2001. — B. 52–54.
6. Xo‘jayev T. R. Mifik obraz va yozma adabiyot // Adabiy meros. — 1991. — № 2. B. 63–68.
7. Xo‘jayev T. R. XV asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va folklor: filol. fan. nomz. dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 1996.
8. Rahmonov T. Qadimgi miflar o‘zbek folklori epik motivlarining o‘zagi sifatida: filol. fan. nomz. dissertatsiyasi. — Toshkent, 1997. — B. 18–23.
9. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. — М.: Наука, 1973. — 215 с.
10. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. — Toshkent, 2000.